

## MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONIMIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi

katta o`qituvchisi

M.Y.Ergasheva

Sh.A.Aliyeva

talaba

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish, mavzuga oid joy nomlari turlari hamda ulardan dars jarayonida samarali qo'llash to'g'risida to'grisda ma'lumotlar izohlangan.

**Kalit so`zlar:** geografik atamalar, toponimika, joy nomlari, gidronimlar

Maktab geografiya darslarida, dastur va darsliklarda joy nomlari salmoqli o'rinnegallaydi. Geografik xaritalarni esa joy nomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun maktab geografiya darslarida toponimlarga alohida e'tibor berilishi kerak. Quyi sinflarda o'quvchilar 50-100 tagacha, yuqori sinflarda esa bir necha yuzlab nomlarga duch keladi. Bularni o'rganish uchun faqat nomini aytib o'tish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Ushbu geografik obyekt haqida o'quvchilarda tasavvur hosil bo'lishi uchun, nomning qisqacha izohi, kelib chiqish tarixi aytib o'tilsa, ayni muddao bo'lar edi. Bu narsa o'quvchilar qiziqishi, obyekt haqidagi bilimlarni "muhrланib" qolishiga ko'mak beradi.

Bundan tashqari, o'quvchilar qiziqishiga o'qituvchilar hozirjavob bo'lib turishlari shart. Shuning uchun o'qituvchilar mavzuga oid joy nomlari haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Toponimikaga oid ma'lumotlar geografiya fanini yanada qiziqroq qiladi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi va bilimlarini mustahkamlaydi. Lekin, shuni nazarda tutish kerakki geografiya darslari doimo nomshunoslikdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Professor H.Hasanov aytganidek "toponimika juda qiziqarli ekan deb hamma darslarda joy nomlarini o'rganaverib, o'quvchilarning joniga tegmaslik kerak...".

Nomlarni organizhga darsning ma'lum qismigina ajratilsa bo'ladi, hamma nomlarni bilish shart emas. Bunga o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dasturdagi va darslikdagi eng asosiy nomlarga e'tibor berilishi kerak. Geografik joy nomlarini mакtabda o'rganishda o'quvchilarning nomlarni to'g'ri yozishlari va to'g'ri talaffuz qilishlariga erishish lozim. Chunki geografik nomlarni to'g'ri yozish o'quvchilar savodxonligining muhim qismi hisoblanadi, nomlarni to'g'ri talaffuz qilish orqali nutq madaniyati o'stiriladi.

Joy nomlarini darsdan tashqari fakultativ mashg'ulotlar, geografik kechalar, o'yinlar, viktorinalar, krossvordlar, rebuslar, qiziqarli savol-javoblar tariqasida o'rganish mumkin. Bularga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ranglar nomi bilan ataladigan dengizlarni toping-chi? (Javob: Qora, Oq, Qizil, Sariq dengizlar).

2. Toshbaqa orollari, Ayiq ko'li, Kenguru orollari, Ilon kechigi, Qirg'iy orollari, It orollari, Echki oroli, Buqa tog'lari qayerda? (Javob: Toshbaqa orollari Janubiy Amerika sohillari yaqinida joylashgan, Peru davlatiga tegishli Galapagos orollari tarkibida; Ayiq ko'li-Shimoliy Amerikada; Kenguru orollari –Avstraliyada; Ilon kechigi –Jizzax viloyati Ilono'tti darasida; Qirg'iy oroli – Azor orollari tarkibida; It oroli- Kanar, Echki oroli – Kapri, Buqa tog'lari – Turkianing Tavr tizma tog'lari tarkibida).

3. "Yangi shahar" ma'nosini anglatuvchi shaharlardan o'ntasini nomlang. (Javob: Novgorod, Nyu-York, Novogrudok, Nove- Muasto, Navobod, Nyushtadt, Neapol, Niigata, Nyutaun, Axalsixe)

4. Osiyoning eng chekka shimoliy va sharqiy nuqtalari kimlarning nomlarni bilan ataladi? (Javob: S.Chelyuskin va S.Dejnev).

5. O'lik dengiz, O'lim (Ajal) vodiysi qayerda va nima uchun shunday atalgan? (Javob: O'lik dengiz quruqlikdagi eng chuqur botiq (-402 m.), Isroilda joylashgan, eng sho'r dengiz, shuning uchun deyarli tirik organizmlar yashamaydi; O'lim (Ajal) vodiysi Shimoliy Amerikada, bu vodiy ham botiqda joylashgan (-86 m.), oltin izlovchilarning bir guruhi qaytib kelishmagan, shuning uchun shu nom bilan ataladi).

6. Nima uchun Shimoliy va Janubiy Amerika oralig'idagi orollar Vest-Indiya deb ataladi? (Javob: Xristofor Kolumb Yevropadan Hindustonga boriladigan dengiz yo'lini ochish maqsadida adashib shu orolga kelib qolgan va bu yerlarni Hinduston deb o'ylab, "Vest-Indiya"-G'arbiy Hinduston deb atagan).

7. "Uch ming orol mamlakati" nomini toping? (Javob: Indoneziya; aslida orollari soni 13,5 mingga yetadi, shulardan 6 mingtasini nomi bor, 992 tasida odam yashaydi). Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida savol-javoblardan tashqari shaharlarni nomlarini o'rganish uchun "shaharlar zanjiri" o'yinini o'tkazish mumkin. Bu o'yin muayyan sinfga yoki ma'lum bir hududdagi shaharlarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. O'yinni o'tkazish tartibi quyidagicha: birinchi partada o'tirgan o'quvchi bir shahar nomini aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan shaharning oxirgi harfidan boshlanadigan shahar nomini aytadi, so'ngra uchunchi o'quvchi .... va hokazo, shu tartibda davom etadi. Masalan, Toshkent - Termiz - Zarafshon - Namangan - Nukus - Samarqand ....

Toponimikani ham boshqa fanlardek o'ziga xos iboralari mavjud. Ularni yaxshi o'zlashtirish esa fan sir-asrorlarini bilib olishni osonlashtiradi. Quyida toponimikada qo'llaniladigan asosiy so'z va iboralarni qisqacha sharhi berilgan.

Agroonim – (yunoncha agros -dala, ekinzor, shudgor) – toponimning bir turi. (Bedapoya, O'ttizgektar, Mo'soning yeri);

Antroponim – (yunoncha antropos - odam)- atoqli otning bir turi. Odamning ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi. (Hamid Olimjon, Sharof Rashidov, Safar ota, Hayitqul tepa);

Atoqli ot - biron obyektni boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, onim. (Mirzacho'l, Qizilqum, Qili va boshqalar);

Geografik atamalar - geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik atamalar hisoblanadi. Masalan, adir, qir, ko'l, cho'l, tog', quduq, soy, tekislik va boshqalar. Geografik atamalar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan

alohida yoziladi. Ko'proq shevalarda ishlataladigan atamalar mahalliy geografik atamalar yoki xalq geografik atamalari deyiladi.

Gibrild nom- ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan nomlar. (Toshkamar, Ko'kgumbaz, Xayrobod);

Gidronim -(yunoncha gidro – suv, onim – nom, ism)- toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tamonidan bunyod etilgan har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, quduqlar va boshqalar. (Zominsuv, Sangzor, Qili, Aydarko'l, Tuzkon);

Makrotoponim - ma'lum va mashhur bo'lgan tabiiy geografik obyektning atoqli oti, materiklar, qit'alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog'lar, tabiiy geografik o'lkalar nomi. Masalan, Turon, Qizilqum, Osiyo, Oloy, Pomir. Bular ko'pincha olimlar, sayyoohlар tomonidan beriladi va rasmiylashtiriladi. Makrotoponimlar ba'zida yerli aholiga ma'lum bo'lmasligi mumkin, chunki ular asosan mikrotoponimlandardan foydalanadilar.

Mikrotoponim - muayyan hududda ma'lum bo'lgan kichik geografik obyektlarning atoqli otlari. Masalan, buloqlar, ko'priklar, jarliklar, quduqlar, bog'lar va boshqalar. Mikrotoponimlar uchun omonatlik, o'zgaruvchanlik, harakatchanlik xosdir, hamda ular nafaqat geografik tushuncha balki, ma'naviy tushuncha hamdir.

Mikrotoponimlar odatda og'zaki nutqda qo'llaniladi, kamdan-kam yozuv ma'lumotlarida ishlataladi. Tilning o'zgarishi bilan mikrotoponimlar ham o'zgaradi. Ularning ko'pchiligi yuqolib ketishi ham mumkin.

Oykonim - (yunoncha oykos – uy, turar joy, makon)- toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Jizzax, Zomin, Do'stlik, Marjonbuloq.

Oronim - (yunoncha oros – tog') – tog'lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, daralar va boshqa bir qator orografik obyektlarning nomi. Masalan, Nurato, Turkiston, Molguzar, Amir Temur darvozasi.

Toponim - (yunoncha topos – joy, makon, onima- nom, ism.)- har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan, gidronim, oykonim, urbonim, agroonim.

Totem - urug'chilik tuzumining ilk davrida hayvon va o'simliklar turiga yoki jonsiz tabiat narsalariga topinosh. Masalan, bolg'ali, taroqli, oytamg'ali, erganakli va boshqalar.

Transkripsiya - (lotincha transcriptio – ko'chirib yozish) boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar) bilan ifodalash, yozish. Transkripsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushuniladi.

Formant - (lotincha formans - hosil qiluvchi) -so'z yasaydigan, lekin, mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi. Masalan, kent-Nushkent, Yangikent; loq - Toshloq, Qumloq va boshqalar.

Urug' - kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh avlod – bir ota-onadan tarqalgan avlod. Urug'chilik qon- qarindoshlikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy jihatdan o'zaro bog'liq.

Etnonim - (yunoncha etnos-xalq, onim-ism, nom) – urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug', qabila, xalq nomi o'zi tamonidan tanlangan yoki

o'zgalar tamonidan berilgan bo'lishi mumkin. Masalan, barlos, nayman, qipchoq, jaloyir, laqay va boshqalar.

Etimon - (yunoncha etimon-haqiqat, so'zning asosiy ma'nosi) – muayyan nomning tadqiqotchilar aniqlagan dastlabki shakli, ma'nosi.

Haqiqiy toponim - bu xarita, ma'lumotnomalarga tushgan, aslida mikrotoponimlardan kelib chiqqan tabiiy va sun'iy obyektlarning yakka nomi. Ular har xil xalq va turli tillar mahsulidir, juda ko'p ishlataladi va o'zi joylashgan hududdan boshqa joylarda ham ma'lumdir. Qabila - (arab) urug', urug'-aymoq- bir ota-onadan tarqalgan bir nechta urug' uyushmasi. Qabila urug'ga nisbatan yirik bo'lib, bir nechta urug'larning birlashuvidan hosil bo'ladi. Masalan, ming, nayman, jaloyir, qo'ng'irot, qipchoq va hokazo.

Xulosa qilib aytganda geografik nomlarga bag'ishlab maxsus geografik kechalar, viktorinalar uyuştirish mumkin. Krossvordlar, rebuslar tayyorlab maktab yoki sinf devoriy gazetalarida e'lon qilishi ham mumkin. Umuman olganda, maktab geografiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda joy nomlarini o'rganishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Asosiy maqsad, geografiya fanini puxta o'zlashtirish va fanga bo'lgan qiziqishni yanada orttirishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижоновна Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." Интернаука 10-4 (2017): 29-31.
2. Мелибоева, Феруза Солижоновна, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУГОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." Интернаука 10-4 (2017): 31-34.
3. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРФОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." Интернаука 10-4 (2017): 34-36.
4. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." Europaische Fachhochschule 1 (2016): 3-6.
5. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана". Самарканд. 2013.
6. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." Экономика и социум 2-1 (93) (2022): 73-76.
7. Meliboeva, F. C. "MANUFACTURING IMPACT ASSESSMENT ON HUMAN HEALTH." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI 3.12 (2023): 113-115.

8. Meliboeva, F. S. "DISEASES CAUSED BY ENVIRONMENTAL POLLUTION IN THE KOKAND OASIS." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12 (2023): 116-119.